



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2024-yil 30 mart, № 65 (8688)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



## “YASHIL MAKON” LOYIHASI VA OBODONCHILIK BO'YICHA VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 29-mart kuni “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar hamda chiqindilarni boshqarishni takomillashtirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Bu yil bahorda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 125 million tup ko'chat ekilishi mo'ljallangan. Hududlarda bog'lar yaratish, yo'l bo'yalarida 10 qatordan daraxtlar ekish bo'yicha ishlar boshlangan. Bu Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Lekin aksariyat viloyat va tumanlarda daraxt ekadigan joylar haligacha belgilanmagan, sug'orish va ko'chatga pul ajratilmagan.

Shu bois Vazirlar Mahkamasida bu masala tanqidiy ko'rib chiqilib, viloyat hokimlarining sohaga mas'ul o'rinbosarlari, tuman hokimlari va ularning o'rinbosarlari, tizim tashkilotlari rahbarlaridan 28 nafariga intizomiy jazo qo'llangan qayd etildi.

Bu boradagi ishlar ko'lami vazirliklar kesimida ham turlicha. Masalan, Mudofaa vazirligi 100 gektar, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi 65 gektardan bog' yaratgan. Lekin Energetika va Transport vazirliklariga ajratilgan yerlarda ko'chat to'liq ekilmagan. Avtomobil va temir yo'l bo'yari, daryo va kanal yoqalari, sanoat korxonalari va yonilgi quyish shoxobchalari atrofida ham qancha joylar bo'sh yotibdi.

Umuman, daraxt ekishni ommalashtirish bo'yicha tashabbus va targ'ibot yetishmagan ko'rsatib o'tildi. Bu borada davlat tashkilotlari bilan birga mahalliy Kengashlar, Ekopartiya va boshqa uyushmalar, mahallalar — hamma birdam bo'lib harakat qilsa, juda ko'p bog'lar yaratilishi ta'kidlandi.

Yig'ilishda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi galdagi vazifalar, yangi tashabbuslar muhokama qilindi.

Yurtimizda daraxt ekib, yashillik yaratishni xohlovchilar ko'p. Lekin ko'p

qavatli uyda yashaydigan odamlarda yer yo'q. Bu borada Janubiy Koreya tajribasi asosida Toshkent viloyatida yaxshi tashabbus boshlangan. Unga ko'ra, tumanlar hududidan yer ajratilib, 30 yil muddatga obodonlashtirish boshqarmalariga beriladi. Mahalliy byudjet hisobidan tomchilatib sug'orish tizimi joriy qilinib, yer tayyor holga keltirilib, daraxt ekish istagi bor aholiga taklif etiladi. Har bir ko'chat uni ekan odam nomiga tamg'alanadi. Daraxtlarni parvarishlash uchun obodonlashtirish boshqarmasi xodimi birlashtiriladi.

Davlatimiz rahbari bu tajribani barcha viloyatlarda amalga oshirish bo'yicha ko'rsatma berdi.

Mamlakatimizda 9 ming 452 ta mahalla bor. Jumladan, shaharlarda 39 mingta ko'p qavatli uy mavjud. Mahalla faollari, boshqaruv servis kompaniyalari ushbu hududlarda ko'chatlar ekilishiga bosh-qosh bo'lishi zarurligi ta'kidlandi.

Yo'llar va kanallar bo'yidagi yerlarni talabgorlarga to'g'ridan-to'g'ri shartnoma asosida 10 yilga berib, 5 qatordan ko'chat ekilish tizimi joriy qilingan. Bundan foydalanib, hozirgi mavsumda ham ko'plab daraxtzorlarga zamin yaratish mumkin.

Yashil hududlarni ko'paytirish bo'yicha Toshkent shahrida ham yaxshi tajriba qo'llanmoqda. Ya'ni shaharsozlik kengashi yangi qurilishlar maydonining kamida 30 foiziga daraxt ekish majburiyatini qo'yib, ko'chat navigacha belgilab beryapti. Obyekt bu shart bajarilgandan keyingina foydalanishga qabul qilinaypti.

Qurilish vazirligiga bu tartibni barcha hududlarda ommalashtirib, shaharsozlik normalari va litsenziya talablariga daraxt ekish majburiyatini kiritish topshirildi.

Xususan, bu yil topshiriladigan 2,5 mingta ko'p qavatli uy hududining

30 foizida, 38 ta “Yangi O'zbekiston” massivining har birida kamida 1 gektardan yashil xiyobonlar tashkil qilinishi belgilandi.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligiga joylarda 444 ta yashil bog' va 160 ta jamoat parki tashkil qilish, “Mening bog'im” loyihasini ishga tushirish vazifasi qo'yildi.

Mutasaddilar dala chetlarida, yirik korxonalar va sanoat zonalar atrofida yashil hududlar tashkil qilish rejalari bo'yicha axborot berdi.

Ijtimoiy muassasalarga ko'chatlarni bepul yetkazib berish amaliyoti bu yil ham davom ettirilib, ularga jami 4 milliondan ziyod ko'chatlar tarqatilishi aytiladi.

Yig'ilishda chiqindilarni boshqarish tizimini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish masalalari ham muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, endi hududlarda obodonlashtirish, tozalikni ta'minlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim bo'ladi. Har bir viloyatdagi 2 tadan tumanda 1-maydan boshlab, tajriba tarzida obodonlashtirish boshqarmalari vazifalari xususiy shirkat asosida chiqindi korxonalariga o'tkazildi.

Bunda tadbirkorlar o'ziga birlashtirilgan hududda daraxt va gullar ekish, ularni parvarishlash, aniqlari tozalash, ko'chalarni yoritish bilan birga, chiqindilarni olib ketish bilan ham shug'ullanadi. Obodonlashtirish bo'limlariga har yili byudjetdan ajratiladigan mablag'lar ham endi ularga yo'naltiriladi.

Ushbu tajriba o'zini oqlasa, 2025-yildan barcha tuman va shaharlarda yo'lga qo'yiladi.

Toshkent shahri uchun alohida tizim bo'ladi. Poytaxt

tumanlaridagi obodonlashtirish boshqarmalarining ko'chalarni tozalash, ko'kalamzorlashtirish, yo'llarga xizmat ko'rsatish vazifalari 15-apreldan auktsion orqali xususiy shirkatlariga beriladi.

Chiqindi poligonlarini tartibga keltirish va chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha ham yangi tizim bo'ladi. Har bir viloyatda joylashuvi qulay bo'lgan 3-4 tadan poligon maxsus ekosanoat zonasiga aylantirilib, qayta ishlash loyihalari amalga oshiriladi. Qolganlarida chiqindini vaqtinchagina to'plab, qayta yuklaydigan stansiyalar ishga tushiriladi.

Resursni o'tab bo'lgan poligonlar yopiladi. Ularning atrofida terak, tut, gujum, zarang ekib, “yashil belbog” barpo qilinadi.

Chiqindilarni olib ketish xizmati yaxshi bo'lishi uchun to'lov intizomi ham kerak. Shu bois bu borada ham yangi tartib joriy qilinadi. Unga ko'ra, “mahalla yetiligi”ga hududida aslida ko'rsatilmagan xizmat bo'yicha noreal qarzni hisobga olmaslik vakolat beriladi. Bu orqali xizmat ko'rsatilmagan hudud uchun ham debitor qarzdorlik yozib qo'yiladigan adolatsiz amaliyotga chek qo'yiladi.

Ko'p qavatli uylarda aholini chiqindini saralagan holda tashlashga rag'batlantiradigan tizim joriy etiladi. Buning uchun Ekologiya jamg'armasi hisobidan maxsus chiqindi qoplab beriladi, aholi chiqindini belgilangan toifaga ajratib, shoxobchaga olib boradi. Tadbirkorlar esa qayta ishlanadigan foydali chiqindini aholidan sotib oladi.

Ushbu tizim birinchi bosqichda Toshkent, Andijon, Buxoro, Termiz, Angren shaharlari va Toshkent tumanida yo'lga qo'yilishi belgilandi.

Yig'ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilarning axboroti eshittildi.

## IQTISODIYOTNI BARQAROR O'STIRISH YUZASIDAN VAZIFALAR MUHOKAMASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar, shu jumladan, yirik korxonalarni transformatsiya qilish, hududlarning “o'sish nuqtalari”ni ishga solish, aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida soha va tarmoqlarda iqtisodiy faollik oshib bormoqda.

Xususan, joriy yilning birinchi choragida yalpi ichki mahsulot hajmi 6 foizdan ziyod o'sishi kutilmoqda. Bunda tadbirkorlik faol qo'llab-quvvatlanishi va qish mavsumida barqaror energiya resurslari bilan ta'minlanishi hisobga sanoat o'sishi qariyb 10 foizga, eksport hajmi 3,5 milliard dollarga yetishi muhim omil bo'lmoqda.

Tashqi bozorda raqobat kuchayib borayotgan sharoitni inobatga olgan holda, 2024-yilda bozor iqtisodiyoti poydevorini

qurishning asosiy jarayonlarini yakunlab, iqtisodiyotni sifat jihatdan mutlaqo yangi darajaga olib chiqish, korxonalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini oshirish talab etilmoqda.

Shu bois yig'ilishda yirik davlat korxonalarining xarajatlarini maqbullashtirish, energiya resurslarini tejash borasida qilinayotgan ishlar natijadorligi atroflicha ko'rib chiqildi. Duniyo bozorida murakkab sharoitda eksport tushumlarini oshirish, korxonalarining to'lov qobiliyatini mustahkamlash, debitor qarzdorligini kamaytirish, xarajatlar asosid o'sishning oldini olish bo'yicha aniq vazifalar qo'yildi.

Alohida e'tibor tarmoq va hududlarning eksport imkoniyatlarini to'la ishga solish masalalariga qaratildi. Buning

uchun tadbirkorlarga tashqi bozorlarga chiqishda qulay ishlab chiqarish va logistika zanjirlarini yaratib berish, mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Davlatimiz rahbari ichki bozorda narx-navo barqarorligi masalasiga alohida to'xtalib, kundalik iste'mol tovarlarini mahalliyashtirishni kengaytirish, korxonalarining quvvatini oshirishga ko'maklashish zarurligini ta'kidladi.

Yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirishda hududlardagi sanoat zonalarini hamda kooperatsiya imkoniyatlaridan keng foydalanish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash kerakligi qayd etildi. Asosiy e'tiborni qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni tayyorlash, ish o'rnlarni ko'paytirishga qaratish shartli ko'rsatib o'tildi.

## JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH CHORA-TADBIRLARINI KUCHAYTIRISH MASALALARI KO'RIB CHIQLI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 29-mart kuni huquqni muhofaza qiluvchi organlar va kuch tuzilmalari rahbarlari ishtirokida jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya rahbariyatining savdo va xizmat ko'rsatish sohasi yirik obyektlarida, shu jumladan, savdo-ko'ngilochar majmualar, bog'lar, bozorlar va boshqa fuqarolar gavjum bo'ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash ishlarining tashkil etilishi to'g'risidagi hisobotlari tinglandi.

Jamoat xavfsizligiga yangi tahdid va xatarlar tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda huquqni muhofaza

qilish idoralari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. Shu bilan birga, jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonida tadbirkorlik subyektlari va fuqarolarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini so'zsiz ta'minlash muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari huquqni muhofaza qiluvchi organlar, fuqarolik jamiyati institutlari va tadbirkorlik subyektlarining bu borada to'laqonli hamkorlik

qilishlarini ta'minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqishga topshiriq berdi.

Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya rahbariyati oldiga jamoat tartibini saqlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni yanada kuchaytirish, aholi gavjum bo'ladigan joylarda sodir etilishi mumkin bo'lgan terrorchilik harakatlari va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan ta'sirchan choralarini ko'rish vazifasi qo'yildi.

O'ZA.

### O'rganish

Xotin-qizlar bandligi:

## YANGICHA YONDASHUV ZARUR

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboeva boshchiligidagi ishchi guruh Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida bo'lib, xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga qaratilgan ishlar holati bilan tanishdi.

Senat Raisi dastlab tumandagi monomarkazda bo'lib, xotin-qizlarni kasbga o'qitish orqali bandligini ta'minlash borasidagi ishlar, yaratilgan shart-sharoit bilan tanishdi. Ayni chorada shu yerning o'zida opa-singillarimiz bilan samimiy suhbat o'tkazilib, ularning qiziqishlari va muammolari o'rganildi. Yakunda ular uchun asqatadigan taklif va tavsiyalar berildi.

Shundan so'ng respublika ishchi guruhi a'zolari, tuman hokimi, sektor rahbarlari, Toshkent viloyati hamda Oqqo'rg'on tumani mas'ullari, mahalla faollari ishtirokida muloqot o'tkazildi. Uchrashuv davomida xotin-qizlarni kasb-hunariga o'qitish, bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish bo'yicha ishlarni mutlaqo yangicha yondashuv va tizim asosida yo'lga qo'yish, bu borada Yangiyo'l tumanining Qirsadqat mahallasida joriy etilgan tizimni qo'llash bo'yicha topshiriqlar berildi.

Yangi tizim asosida, avvalo, tumandagi barcha mahallalarda xonadonbay xatlov o'tkazgan holda ishsiz, ammo ishlab istagini bildirgan xotin-qizlar, ularning imkoniyat va ehtiyojlari aniqlanadi hamda mahallalar kesimida xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan aniq manzilli choralar belgilab olinadi.

Bunda asosiy e'tibor xotin-qizlar bandligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bilan birga, ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarga zarur tibbiy, ijtimoiy, psixologik va huquqiy yordam ko'rsatish hamda aholi tomorasidan samarali foydalanish, mahallada ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada mustahkamlash masalalariga qaratiladi.

Muloqot jarayonida Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Ozoda Parpiyoyeva, Xalq banki boshqaruvchi raisi o'rinbosari Gulzoda Rashidova, shuningdek, viloyat va tuman mutasaddilari so'zga chiqib, belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha fikr-mulohazalarini bildirdi.

So'ngra T. Norboeva Qahramon mahallasida yashovchi fuqaro T. Mansurov xonadoniga tashrif buyurib, bu yerda tomorqadan foydalanish borasida to'plangan tajriba bilan tanishdi.

Ta'kidlash joizki, xonadon sohiblari tomorqadan uch marta hosil olish bilan birga, asalarichilik va chorvachilik faoliyati bilan ham shug'ullanib keladi. Natijada birgina o'tgan yilning o'zida 300 million so'm daromad olgan.

Senat Raisi mahallalarda mana shunday tadbirli fuqarolar safini kengaytirish hamda tomorqadan unumli foydalanish ko'nikmasini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirish mumkinligini alohida ta'kidlab o'tdi. Zero, aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirishda tomorqachilikning salmoqli o'rni bor.

O'rganishlar davomida tuman mas'ullari hamda “mahalla yetiligi”ga uy sharoitida o'zini o'zi band qilgan fuqarolarning faoliyatini rasmiylashtirish, oilaviy tadbirkorlik loyihalarini kengaytirish, dual ta'lim tizimi asosida ayollarni kasb-hunarga o'qitish orqali kooperatsiya shaklida bandligini ta'minlash bilan bog'liq vazifalar belgilab berildi.

“Xalq so'zi”.

### Deputatlar — hududlarda

## Inson qadri ulug', xalq manfaatlarini ustuvor

Avval xabar qilinganidek, shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlaridan iborat ishchi guruhlar hududlarda bo'lib, Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan yig'ilishlarda makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, investitsiya va eksport hajmini oshirish, sanoat, qurilish, transport, ekologiya hamda ijtimoiy sohalarida 2024-yilda amalga oshirilishi belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini o'rganmoqda. Shuningdek, deputatlar o'z saylov okruglarida aholi bilan ochiq va samimiy muloqot qilib, ularni qizynayotgan masalalarini hal etish choralarini ko'rishga alohida e'tibor qaratmoqda.

### Ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar — amaliyotga

Qonunchilik palatasi deputatlaridan iborat ishchi guruh a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanida bo'lib, ustuvor vazifalar doirasida byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar bilan tanishdilar.

Bugungi kunda davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan tasdiqlangan reja asosida tumandagi O'rozbog' Jumaniyozov mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi oilaviy shifokor punktingi yig'ini holatida bo'lgan eski binosi o'rni namunaviy loyiha

asosida 2 qavatli yangi bino qurilishi boshlangan.

Ushbu binoning qurilishi uchun Davlat byudjetidan 3,5 mlrd. so'm mablag' yo'naltirilishi ko'zda tutilgan bo'lib, olti oy ichida qurilish ishlarini yakuniga yetkazish rejalashtirilgan. Hududda qurilishda shaffoflikni ta'minlash maqsadida videokuzatuv yo'lga qo'yilgan.

Deputatlar o'rganishlar davomida bu yerdagi qurilish jarayonini ko'zdan kechirdi. Ochiq muloqot davomida ajratilgan mablag'larni to'g'ri yo'naltirib, sifatga alohida e'tibor qaratish, aholi uchun zarur sharoitlar yaratish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Ishchi guruh a'zolarining o'rganishlari Beruniy tumanidagi “Guliston” MFYda davom etdi. Deputatlar bu yerda bir qator ijtimoiy

soha obyektlari faoliyati bilan tanishdi. Ta'lim muassasalarida bo'lib, yoshlarning zamonaviy bilim va kasb-hunar egallashi uchun yaratilgan sharoitlar bilan qiziqdi.

Mazkur mahallada joylashgan 49-umumta'lim maktabi “Tashabbusi byudjet” loyihasida g'olib bo'lib, unga 1 mlrd. 78 mln. so'm mablag' ajratilgan. Ushbu mablag' hisobidan maktab hududi chegarasini metall-konstruksiyali to'siq bilan o'rash, sport maydonchasi qurish rejalashtirilgan. Ayni paytda ta'lim muassasasida qurilish jarayonlari qizg'in kechmoqda.

Mamlakatimizda “yashil” energetikani rivojlantirish va iqtisodiyotga energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy qilish bo'yicha yaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalangan tadbirkor R. Kazakov tomonidan Beruniy tumanidagi “To'qimachilik” MFYda 11 mlrd. so'mlik loyiha asosida quyosh panellarini o'rnatish ishlari amalga oshirilmoqda.

Mazkur loyihaning ro'yobga chiqarilishi aholini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash imkoniyatini oshirish bilan birga, ekologik muammolarning oldini olishga xizmat qiladi.

### Senat qo'mitasida

## XMTning navbatdagi Konvensiyasi ratifikatsiya qilinadimi?

Kecha Oliy Majlis Senati Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasining majlisi bo'lib o'tdi.

Unda senatorlar, viloyatlar Kengashlari doimiy mas'ul vazirlik va idoralar, komissiyalari vakillari, Yoshlar Qoraqalpog'iston parlamenti a'zolari, ommaviy Respublikasi Jo'qorg'i axborot vositalari xodimlari Kengesi, xalq deputatlari ishtirok etdi.

## O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik birinchi yalpi majlisi ochilishi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik birinchi yalpi majlisi bugun soat 10.00 da Toshkent shahrida Oliy Majlis Senatining majlislar zalida o'z ishini boshlaydi.

Yalpi majlisni videokonferensaloqa tarzida o'tkazish rejalashtirilgan.

Yalpi majlis Senatning “YouTube” tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib boriladi.

## DILBULOQNING DILTORTAR TAROVATI

### Ko'z o'ngimizdagi o'zgarishlar

Prezidentimiz tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilayotgan yangilik va o'zgarishlar mahallaning xalqchil tuzilmaga aylanishiga xizmat qilmoqda. Bu o'rinda davlatimiz rahbarining 2023-yil 21-dekabrda “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni, shuningdek, “O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorini eslashning o'zi kifoya.

Muhimi, odamlarning o'z hayotidan rozi bo'lib yashashi yo'lida salmoqli ishlar, yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Natijada Vatan ichra vatan sanalgan mahallalarning fayziga fayz, tarovatiga tarovat qo'shilyapti. Buni Toshkent shahri Yakkasaroy tumanidagi Dilbuloq mahallasi misolida ham ko'rish mumkin.



4

Seminar

Hududlarda xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish qanday boryapti?

Oliy Majlis Senatida "Hududlarda xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish va yaratilgan imtiyozlarni tatbiq etishda muammolar va ustuvor vazifalar" mavzida seminar o'tkazildi.

Parlament yuqori palatasining Xalqaro munosabatlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi tomonidan Hududiy vakillik organlari faoliyatini o'rganish markazi bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirida senatorlar, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining doimiy komissiyalari a'zolari, xorijiy ekspertlar, vazirlik va idoralar vakillari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Qayd etilganidek, keyingi yillarda mamlakatimiz hududlariga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish hamda chet ellik sarmoyadorlar uchun imkoniyatlar yaratish borasida salmoqli ishlar ro'yobga chiqarildi. Ammo hamon joylarda o'z yechimini kutayotgan muammolar yo'q emas. Shundan kelib chiqib, seminarida hududlarda investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy investorlar va eksportchilar bilan o'zaro hamkorlik qilishda mahalliy Kengashlar deputatlarining o'rni yuzasidan milliy amaliyot va xorijiy tajriba masalalari atroficha ko'rib chiqildi. Ayni chog'da investitsiya loyihalari amalga oshirish jarayonini monitoring qilish, jumladan, deputatlarining tegishli hokim o'rinbosarlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining axborotlarini eishtirish orqali kompleks tizimli yaratish masalalari chuqur tahlil qilindi.

Qolaversa, yirik investorlar bilan manzilli ishlash, investitsiyalarni jalb etishda iqtisodiy diplomatiya va chet eldagi diplomatik vakolatxonalar ishtirokini kuchaytirish muhimligi ham tadbir qatnashchilari tomonidan ta'kidlab o'tildi.

Seminarida xalqaro moliya institutlari mablag'laridan samarali foydalanish va ularni o'z vaqtida o'zlashtirish, bu mablag'ni ustuvor ravishda ijtimoiy, infratuzilma va suv xo'jaligi loyihalariga yo'naltirish zarurligi ham ta'kidlandi.

"Xalq so'zi".



XMTning navbatdagi Konvensiyasi ratifikatsiya qilinadimi?

Majlis davomida "Xalqaro mehnat tashkilotining ishlayotgan erkaklar va ayollar uchun teng munosabatlar va teng imkoniyatlar: oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar to'g'risidagi 156-sonli Konvensiyasini (Jeneva, 1981-yil 23-iyun) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Qayd etilishicha, bu xalqaro Konvensiya oilada majburiyatlar bo'lgan xodimlar uchun teng imkoniyat va sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan. Konvensiyaga qo'shilgan mamlakatlar bunday xodimlarga nisbatan mehnat huquqlari sohasida kamsitishga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish majburiyatini zimmasiga oladi.

Shundan kelib chiqib, senatorlar tomonidan milliy qonunchilikning Konvensiya talabiga muvofiqi, uni ratifikatsiya qilishdan kutilayotgan natija va keyinchalik uning implementatsiyasi mexanizmlari atroficha muhokama etildi.

Muhokama yakunlari bo'yicha Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi milliy qonunchilikni yanada takomillashtirishga, mehnat munosabatlariga oid talablarni, jumladan, xalqaro standartlarni samarali joriy etishga, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan munosabatlarda O'zbekistonning ijobiy nufuzini oshirishda alohida o'rinni tutishi ta'kidlandi.

Suvdan foydalanish qonun bilan tartibga solinadi

Oliy Majlis Senatining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi majlisida senatorlar, ekspert guruhi a'zolari, vazirlik va idoralar vakillari, Yoshlar parlamenti a'zolari hamda OAV xodimlari ishtirok etdi.

Majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun dastlabki tarzda ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda aholi va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyoji uchun suvdan oqilona foydalanishni ta'minlash, suv obyektlari holatini yaxshilash va suvga doir munosabatlarda korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer xo'jaliklari, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Qonun bilan "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi, "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyatini erkinligini kafolatlash to'g'risida"gi va "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonunlariga hamda O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksiga o'zgartirishlar kiritilayotir.

Xususan, Suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi irrigatsiya bo'limlari va

maxsus xizmatlar negizida tashkil etilgan "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalarining vazifalari va vakolatlari belgilanmoqda.

Bundan tashqari, fermer va dehqon xo'jaliklari hamda boshqa suv iste'molchilarining qishloq xo'jaligi ehtiyoji uchun suv olish limitlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi va Qishloq xo'jaligi vazirlilari, shuningdek, irrigatsiya tizimlari havza va hududiy qishloq xo'jaligi boshqarmalari tomonidan ishlab chiqilishi, xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan tasdiqlanishi belgilanmoqda.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarga suv yetkazib berish xizmatlari uchun to'lovlar bekor qilinishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilayotir.

Tadbir yakunida ko'rib chiqilgan masala yuzasidan Senat qo'mitasining tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Qonunchilik palatasi qo'mitalarida

IJARA HUQUQI E'TIROF ETILGAN YER UCHASTKASINI XUSUSIYLASHTIRISH MEZONLARI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi tomonidan o'zbo'shimchilik bilan egallangan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan bino va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etishga qaratilgan qonun loyihasi muhokamasiga bag'ishlangan ishchi guruh yig'ilishi o'tkazildi.

Ikkinchi o'qishga tayyorlanayotgan qonun loyihasida yer uchastkasi va unda qurilgan imoratga bo'lgan huquqni, shuningdek, yakka tartibdagi uy-joy qurilgan o'zbo'shimchilik bilan egallab olingan yer uchastkasiga ijara huquqini e'tirof etish tartibi belgilanmoqda.

Shu bilan birga, ortiqcha egallangan yer uchastkasiga, bog'dorchilik va uzumchilik



shirkatlari hududidagi turarjoylar egallagan yer uchastkasiga ijara huquqini berish asoslari, ko'chmas mulk obyektiga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, ijara huquqi e'tirof etilgan yer uchastkasini xususiy lashtirish tartiblari nazarda tutilmoqda.

Ishchi guruh yig'ilishida deputatlar bergan takliflardan kelib chiqib, qonun loyihasidagi ayrim

normalar tahrirlandi va to'ldirildi, ayrimlariga esa aniqlik kiritildi. Havolaki normalar loyihadan chiqarilib, to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan moddalar kiritildi.

Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining o'zbo'shimchilik bilan egallangan yer uchastkalariga nisbatan ijara huquqi hamda ularda qurilgan uy-joy, boshqa bino va inshoot yoki ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan mulk huquqi rasmiylashtirilishi uchun huquqiy asoslar yaratilishiga xizmat qiladi.

Qonun loyihasini takomillashtirish ishlari davom etmoqda.

DAVLAT BOJINI TO'LASHDA IMTIYOZLAR BERILADI

Parlament quyi palatasining Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan ishchi guruh yig'ilishida Oliy sud tomonidan ishlab chiqilgan, Qonunchilik palatasiga kiritilgan - kommunal to'lovlarni sud orqali undirishda qulayliklar yaratishga qaratilgan qonun loyihasi bir qator vazirlik va idora vakillari ishtirokida dastlabki tarzda ko'rib chiqildi.

Taklif etilayotgan qonun loyihasi bilan ko'p kvartirali uylarni boshqarish organlari o'zlari

da'volar, arizalar va shikoyatlar bilan fuqarolik ishlari va iqtisodiy sudlarga murojaat qilganda oldindan davlat bojini to'lashdan ozod qilinishi belgilanmoqda.

Shuningdek, ularning talablarini qanoatlantirish to'liq yoki qisman rad etilgan taqdirda, davlat boji ushbu shaxslardan talablaning

qanoatlantirilishi rad etilgan miqdoriga munosib ravishda undirilishi nazarda tutilayotir.

Yig'ilishda deputatlar tomonidan qonun loyihasi tashabbuskorlariga bir qator taklif va tavsiyalar berilib, ayrim masalalarga oydinlik kiritish lozimligi alohida qayd etildi.

"Xalq so'zi".

Inson qadri ulug', xalq manfaatlarini ustuvor

Uchrashuvlarda ishchi guruh a'zolari ushbu loyiha bilan tanishib, bugungi kunda qayta tiklanuvchi energiya manbalari keng joriy etish, aholining ushbu vositalardan faol foydalanishini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilayotganini qayd etildi. O'rnatilgan qaysh paneli uchun quvvatiga qarab imtiyozlar berilayotgani ta'kidlandi.

Yangi imkoniyatlarni ishga solish taklifi o'rtaga tashlandi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari Zuhra Ibragimova boshchiligidagi ishchi guruh Sirdaryo viloyatining Yangiyer shahrida bo'lib, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholiga kommunal xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish hamda qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan ishlar holatini atroficha o'rgandi.

Mazkur o'rganish yakunlari xalq deputatlari Yangiyer shahar Kengashining navbatdagi sessiyasida muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, Yangiyer shahrida joriy yilning yanvar - mart oyida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 106,1 foizni tashkil etgan. Ko'pgina yo'nalishlar, xususan, qurilish ishlari, chakana savdo aylanmasi, xizmatlar sohasida ham yaqqol o'sish kuzatilgan.

Shaharda asosiy turdagi iste'mol mahsulotlari narxlarini barqaror saqlash bo'yicha mahalliy ishlab chiqarishni ko'paytirish orqali inflyatsiyani jilovlash hamda mahsulotlarning narxlari yuzasidan doimiy monitoring olib borish va narxlarning keskin o'sishiga yo'l

qo'ymaslik choralari ko'rilmoqda.

Sessiyada barcha sohadagi ishlar e'tirof etilib, sanoatda tannarxni yanada kamaytirish, korxonalarda qo'shilgan qiymatni oshirish, yangi imkoniyatlarni ishga solish, joriy yil yakuniga qadar hududiy yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atini 10,7 foizga yetkazishga erishish bo'yicha tegishli tavsiyalar berildi.

Shuningdek, ishlab chiqarish hajmlarini kamaytirgan korxonalar to'liq quvvatda ishlashini ta'minlash bo'yicha zarur choralar ko'rish, kichik sanoat zonasida ro'yobga chiqarilayotgan loyihalarning quvvatlarini bosqichma-bosqich oshirish bo'yicha ham takliflar ilgari surildi.

Sessiyada kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

Nega oraliq bekatlar yetishmaydi?

Parlament quyi palatasining bir guruh deputatlaridan iborat ishchi guruh a'zolari Samarqand viloyatida bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy soha obyektlari, tadbirkorlik subyektlari faoliyati bilan yaqindan tanishmoqda.

Dastlabki manzil - Samarqand shahridagi Qorasuv massiv bo'ldi. Deputatlar bu yerda uy-joy va kommunal xo'jaligi, qurilish va transport sohalarida amalga oshirilayotgan ishlar holatini o'rgandilar.

Bugungi kunda shahar jamoat transporti yo'nalishlarida 210 ta oraliq bekat mavjud. Shu hisobdan shaharda 43 ta yangi zamonaviy "Led" ekranli oraliq bekat qurildi, yana 119 ta yangi oraliq bekatini barpo qilish, 158 tasini rekonstruksiya qilish belgilangan.

Deputatlar uchrashuvlar davomida mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash

bo'yicha olib borilayotgan ishlarni ko'zdan kechirdilar. Ma'lum bo'lishicha, Samarqand shahar jamoat transporti yo'nalishlaridagi oraliq bekatlar yetishmaydi. Mavjudlarining aksariyat qismi esa talabga javob bermaydi.

Ushbu masalalarni bartaraf etish bo'yicha mutasaddilarga bir qator taklif va tavsiyalar berildi. Xususan, shaharning yangi yo'nalishlar tarmog'i bo'yicha oraliq bekatlarning namunaviy loyihasini yo'llovchilar, ayniqsa, imkoniyati cheklangan insonlarga qulay bo'lishini inobatga olgan holda ishlab chiqish lozimligi ta'kidlandi.

Ishchi guruh a'zolari, shuningdek, mahalliy Kengash deputatlari hamda Samarqand shahar hokimligi mutasaddilari bilan birgalikda bir qator tadbirkorlik subyektlari, ijtimoiy soha obyektlari faoliyatini bilan ham tanishdi.

O'rganishlar davomida aniqlangan ko'plab muammo va kamchiliklar tegishli tashkilot va idoralar vakillari ishtirokida hal etildi. Yechimi uzoq vaqt talab qiladigan masalalar deputatlik nazoratiga olindi.

O'qituvchilar murojaatlari e'tiborga olindi

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan 17-Qo'rg'ontepa saylov okrugining saylangan Qonunchilik palatasi deputati Tursunoy Muratova saylovchilar bilan navbatdagi uchrashuvini Qorasuv shahridagi 54-umumiy o'rta ta'lim maktabidan boshladi.

Uchrashuvda mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimini rivojlantirish, o'qituvchilarning jamiyatdagi nufuzi, obro'-e'tiborini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini



yuksaltirish, ularga vatanparvarlik, milliy qadriyatlarimiz ruhida ta'lim-tarbiya berish borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirilayotgani qayd etildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan, unda 48 ta maqsadli ko'rsatkichga erishish bo'yicha aniq mexanizmlar belgilangan, bunda 2030-yilga borib, o'quvchilar bilimlari baholash bo'yicha "PISA" xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning jahondagi yetakchi 30 ta mamlakat qatoridan joy egallashi maqsad qilib qo'yilgani bo'yicha tushuntirishlar berildi.

Mahalliy hokimlik va idoralar mas'ullari bilan hamkorlikda o'tkazilgan uchrashuv har tomonlama samarali o'tdi. Deputat maktabda o'qituvchi va o'quvchilar uchun yaratilgan sharoitlarni o'rganib, ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi omillarga e'tibor qaratdi.

Muloqot davomida o'qituvchilarning taklif va murojaatlari ham tinglandi. Jumladan, o'qituvchilar o'quvchilarning aniq fanlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida fizika va kimyo xonalariga zamonaviy laboratoriya jihozlari zarurligini qayd etdi. Ushbu murojaat o'quv yili yakuniga qadar mas'ullar ko'magi bilan ijobiy hal etilishi nazoratga olindi.

Tadbirkorlik rivojida muhim yondashuv

O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi, 9-Andijon saylov okrugining saylangan deputat Umidaxon Zokirova Andijon shahridagi saylovchilar bilan ochiq muloqot o'tkazish, ularni o'ylantirayotgan masalalarga yechim topish bilan bir

FRAKSIYALAR HAYOTI

O'zLiDeP

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Innovatsion rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishda O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi Doniyor G'aniyev axborot texnologiyalari sohasidagi mas'ullar e'tiborini iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish borasida uchrab turgan ayrim masalalarga qaratdi.

"Aksariyat hollarda mobil aloqa operatorlari iste'molchilarga ko'rsatilayotgan xizmat uchun belgilangan tarif rejalarini narxini mijozlarni ogohlantirmasdan oshirishi kuzatiladi. Narxni oshirish yoki oshirmaslikka oid qarorni operatorlarning o'zlari belgilashga hech qanday e'tiroz yo'q. Lekin tariflar narxidagi o'zgarishlar haqida iste'molchini oldindan ogohlantirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilishi kerak", dedi deputat.

"MILLIY TIKLANISH" DP

Bugungi kunda jamoatchilikni birlashtirishga xizmat qiladigan "Tashabbusli byudjet" kabi xalqchil loyihalarning hayotga tatbiq etilishi joylardagi mavjud muammolarni bartaraf qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi Umid Jabborov ba'zi hududlarda uni amalga oshirishda kuzatilayotgan kamchiliklar, xususan, ayrim mas'ullar o'qituvchilar yoki tibbiyotchilarni "bozorma-bozor" ovoz to'plashga yuborishga majbur qilayotgan haqidagi xabarlariga o'zining telegram kanalida munosabat bildirdi.

"Nazarimda, ovoz to'plashga "ixtiyoriy-majburiy" jalb qilingan taqdirda istalgan vaqt va makondan turib murojaat eta oladigan "Ishonch telefoni"ni ishga tushirish maqsadga muvofiq. Toki, majburiy mehnatga yo'l qo'ygan rahbarlar xodimlarga hech qanday bosim o'tkaza olmasin", deb yozadi deputat.

"ADOLAT" SDP

27-mart — Butunjahon teatr kuni munosabati bilan o'tkazilgan "Ochiq eshiklar"



haftalik doirasida teatr san'atining eng sara namunalari muxlislar e'tiboriga havola etildi. Barcha spektakllarga kirish bepul qilingani teatr san'atining ixlosmandlari uchun ayni muddao bo'ldi.

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi Oydin Abdullayeva bu haqda o'z mulohazalarini bildirdi.

"Guvohi bo'lganimizdek, birgina Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrida haftalik doirasida namoyish etilgan "Tumor" spektaklini ko'rish uchun minglab tomoshabinlar tashrif buyurdi. Tomosha zali 760 ta o'rinda ega ekanligini hisobga olsak, yana 300 nafarga yaqin tomoshabinlar spektaklini tik oyoqda bo'lsa-da, tomosha qilgani "teatr barhayot" ekanini ko'rsatadi. Xalqimizning ma'naviy-madaniy saviyasini oshiradigan, yosh avlodni tariximiz, milliy qadriyatlarimizga hurmat hamda ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan bu kabi haftaliklar tez-tez o'tkazilishi tarafdorim", dedi deputat.

O'ZXP

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi Shohista Turg'unova "Seysmik xavfsizlikni ta'minlash



tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokamasida qurilishga oid talablar kuchaytirilayotganini qo'llab-quvvatlashini bildirdi.

"Biroq bu talablar nafaqat yangi qurilayotgan bino-inshootlarga, balki barcha obyektga nisbatan qo'llanilishi kerakligini ilgari surmoqchiman. Sababi joylarda bo'lganimizda umumta'lim maktablaridagi ixtisoslashtirilgan xonalar, masalan, kimyo, fizika xonalarining holati abgor ekanligiga ham guvoh bo'lganimiz. Shu bois qonun loyihasida avvaldan mavjud bo'lgan binolarimizdagi qurilish sifati va holatini ham ko'zdan kechirish bo'yicha vazirlikka mas'uliyat yuklashni o'yab ko'rishimiz kerak", dedi deputat.

O'ZBEKISTON EKOLOGIK PARTIYASI

Ma'lumki, 29-mart kuni Toshkent shahrida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tashabbusi bilan "Avtomobilizatsiya" tadbiri o'tkazildi. Ma'lum qilinganidek, asosiy maqsad — sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, shuningdek, jamoat transporti tizimini rivojlantirish masalalariga jamoatchilik e'tiborini qaratishdir.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zosi Muqaddas Tirkasheva bu bo'yicha o'z fikrlarini aytib o'tdi.

"Ekologiyaga, tabiatga befarq bo'lmagan deputatlaridan biri sifatida ushbu loyiha ishga tushirilganini to'la qo'llab-quvvatlayman. Bu kabi chora-tadbirlar atrof-muhitni avtomobillarning zararli gazlaridan himoyalash, transport vositalari tirbandligini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur tashabbuslarni nafaqat poytaxtda, balki respublikamizning barcha viloyatlarida ham tatbiq etilishi xohladim", dedi deputat.

"Xalq so'zi".





# DILBULOQNING DILTORTAR TAROVATI



## Qut-baraka — hamjihatlikda

Salkam 8 ming nafar aholi istiqomat qilayotgan Dilbuloqqa qadam qo'rgan kishi e'tiborini dastavval shinam yo'llar, ozodalik, saranjom-sarishtalik tortadi.

Mahalla arkasi, munchoqdek tizilgan savdo, xizmat ko'rsatish shoxobchalari, mo'jaz bozor, sokin oqayotgan Salar anhoiri, yon-atrofdagi yashillik — bularning barchasi go'shaga o'zgacha ko'rk bag'ishlab turibdi. Sal narida — Salar bo'yida esa fuqarolar yig'inining zamonaviy ma'muriy binosi qad rostlagan. Xodimlar va u yoki bu masalada keluvchilar uchun ko'rsa havas qilguilik sharoitlari yaratilgan. Binoda kutubxona va unda jadidlar xotirasiga bag'ishlangan burchak ham mavjud.

Hududimizdagi o'zgarishlarni ko'rib, ochig'i, dil yayraydi, — deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Mirzattilla Mirzarayimov. — Faoliyatimizning "yettilik" asosida yo'lga qo'yilishi odamlar ko'ngliga yo'l topishimda, ularni o'ylantirayotgan masalalar yechimida qo'l kelyapti. Xalqimiz "Qut-baraka — hamjihatlikda", deya bejiz aytmagan. "Yettilik" mushtni bir yerga qo'yib ishlash, har qanday muammo shu yerning o'zida hal bo'lar ekan. Asosiysi, mahalladoshlarimiz xursand. "Obod mahalla" dasturi doirasida amalga oshirilgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, yaratilgan qulayliklar hayotimizga yangicha mazmun olib keldi. Ayniqsa, Navro'z ayvomi kunlarida Prezidentimizning mahallamizda bo'lib, ish faoliyatimiz bilan yaqindan tanishishi, odamlar bilan samimiy suhbat qurgani ishonchimizni yanada mustahkamлади. Zimmamizdagi mas'uliyatni oshirdi. Barchamiz hali-hanuz shu uchrashuv taassurotlari og'ushidamiz.

## "Sobiq qo'shni" pushaymon bo'lyapti"

— Menga davlatimiz rahbari bilan yuzma-yuz uchrashish baxti nasib etdi, — deydi mehnat faxriysi Mahbuba Ibragimova. — Bu 72 yillik umrim davomidagi eng esda qolarli voqea bo'ldi. Buyog'ini so'rasangiz, ushbu mahallaga 1987-yilda ko'chib kelganmiz. Yaqin-yaqingacha yon-atrof xarob ahvolda edi. Qurilish chiqindilari uyum-uyum bo'lib yotardi. Anhor bo'yini-ku, aytmay qo'ya qolay, qamishzor-u chakalakzorga aylangan, kechqurun yurgani yurak betlamasdi.

Hududimizda "Obod mahalla" dasturi

sharofati bilan shunaqangi o'zgarishlar yuz berdiki, aytib ado qilolmaysan, kishi. Aytmoqchi, bir-ikki mahalladoshimiz bu yerdagi shart-sharoitlardan nolib boshqa joyga ko'chib ketgandi. Kuni kecha sobiq qo'shnilardan biri menga atayin qo'ng'iroq qilib, Dilbuloqdagi o'zgarishlardan xabar topgani, mahalladan ko'chib ketganiga pushaymonligini aytdi.



Mahbuba ayaning bu so'zlaridan keyin anhor bo'ylab sayr qilish fikri tug'ildi. Yo'l-yo'lakay yondafarimizga ayrim ma'lumotlarni qayd etdik. Ma'lum bo'lishicha, Salar atrofiga 3,2 kilometr uzunlikda piyodalar yo'lasi, velosipedchilar harakatlanishi uchun maxsus trotuar barpo qilingan. Anhor bo'yab 1,2 kilometr masofada uzum so'risi tashkil etilgan va 800 tupdan ziyod tok ko'chatlari o'tqazilgan. 4 ming tupdan ziyod daraxt va gul ko'chatlari, tungi chiroqlar, bolalar o'yinchoqlari, o'ringdqlar, qo'shni Qushbegi mahallasiga tutash Salar bog'i — bularning bari Dilbuloqni diltortar maskanga aylantirdi...

## Hamkorlikdagi ish samara beradi

— Odam borki, uyda, ko'chada, jamoat joylarida amin-erkin yurishni, xotirjam, bexavotir yashashni xohlaydi, — deydi mahalla profilaktika inspektori Shuhrat Nuriddinov. — Bilasiz,

mahallada ish endilikda soliq inspektori va ijtimoiy soha xodimi ham qo'shilgan holda "yettilik" asosida tashkil etilgan. Bunda har bir xodimning vazifalari belgilab berilgan. Masalan, mening burchim jamoat xavfsizligini ta'minlash, boshqacha aytganda, mahallada xavfsiz muhit yaratishdan iborat. Odatda, oilaviy nizolar, yoshlarning nojo'ya yo'llarga kirishi kabi salbiy holatlarga xonadondagi nosog'lom muhit, ishsizlik sabab bo'ladi. Biz shuni nazarda tutib, fuqarolar bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlashni yo'lga qo'rganmiz. Odamlarning o'y-tashvishlarini o'rganib, o'z xulosa va takliflarimizni beraymiz, mahalla "yettiligi" bilan maslahatlashib, muammolarga yechim topaymiz.

84 gektar maydondan iborat Dilbuloqda ishning shu yo'sinda tashkil etilishi mahallaning jinoyatdan xoli hududga aylanishi sari yo'l ochmoqda. Agar 2022-yilda 19 ta jinoyat sodir etilib, hudud "qizil" toifaga kiritilgan bo'lsa, o'tgan yilda bu ko'rsatkich 6 taga tushdi. Joriy yilning o'tgan davrida esa mahallada birorta ham jinoyat

businessini yo'lga qo'yishim kerak", degan o'y turardi. Niyatimni mahalla raisiga bildirdim. Faollar har tomonlama qo'llab-quvvatlashdi. Mahallaning sobiq binosini menga ajratib berishdi. 2020-yilda 13,5 million so'm miqdoridagi imtiyozli kreditga tikuv mashinalari xarid qildim. Yonimga ikki nafar chevarni olib, bolalarga mo'ljallab buyumlar ishlab chiqaradigan sex faoliyatini yo'lga qo'ydik. Bugun esa baralla aytamanki, "ayollar daftari" endi men uchun o'tmishda qoldi.

"ImDi Baby" brendi asosida mahsulotlar ishlab chiqarayotgan yakka tartibdagi tadbirkor ayni damda 16 nafar xotini o'ringa mo'ljallagan. Ular orasida nogironligi bor yoshlarni ham uchratamiz. Bundan tashqari, ishbilarmon ayolning 7-8 nafar kasanachisi ham bor. Oyiga o'rtaacha 20 ta katta-kichik buyurtma ado etiladi.

E'tiborlisi, Gulruh qo'lida kasb-hunari bo'lmagan qiz-juvonlar uchun 20 o'ringa mo'ljallangan "Ustoz — shogird" o'quv markazi faoliyatini ham yo'lga qo'ydi. Xullas, yaqin-yaqingacha mahalla ko'magidan umidvor bo'lgan G. Abdujabborova tadbirkorlik ortidan

25 yilcha muqaddam ushbu mas'uliyati cheklangan jamiyatda atigi 35 kishi ishlardi.

— Mahallamizdagi shunday zamonaviy korxonada mehnat qilayotganimdan xursandman, — deydi tikuvchi Dilfuza Soatova. — Biz uchun bu yerda qulay ish sharoitlari yaratilgan. Tushlik bepul, o'lsidan qatnab ishlovchilar uchun avtobus ajratilgan. Dam olish kunlarida sayohatlar tashkil

"Irodad"ning jami 26 ta firma do'konlari bor.

## Ilg'or tajribalar — taraqqiyot yo'lining lokomotivi

— Hali oldinda ishlarimiz ko'p, — deydi mahalla raisi M. Mirzarayimov. — Xususan, kambag'allikni



etiladi. Bu yerda ishlab topayotganimiz yaxshi kunlarimizga buyuryapti. Qizim oliy ma'lumotli, ikki o'g'lim esa institutda tahsil olishmoqda. Mahallamizga kelsak, bu yerdagi yangilanishlar, o'zgarishlarni ko'rib quvonmay bo'larkanmi?! Masalan, anhor bo'yidagi sayilgohga chiqsak, undagi fayz-u tarovetni ko'rib charchoqni ham unutamiz. Men hayotidan mamnun ayollarning biri ekanimga shukronalar aytaman.

Korxonada menejeri Dinara Valiyevaning bildirishicha, Dilbuloqda "Irodad" brendi asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni nafaqat qo'shni davlatlar, hatto olis Fransiyada ham yaxshi bilishadi.

— O'tgan yili buyurtma asosida

qisqartirish, ishsiz fuqarolarning bandligini ta'minlashimiz zarur. Bu borada ma'lum bir tajribaga egamiz. Masalan, hududimizda "Kommunal biling servis" kompaniyasi tomonidan o'ndan ziyod savdo, xizmat ko'rsatish shoxobchalari barpo etilib, o'ttiz chog'li kishining bandligi ta'minlandi. "Grant kapital" qurilish kompaniyasi tomonidan ham shu kabi ishlar amalga oshirildi. Kambag'allikka barham berish, aholi daromadini oshirish masalalarida bizga Sayxunobod tajribasi qo'l kelyapti.

Raining aytishicha, mahallada 39 ta kambag'al oila bor, ishsiz fuqarolar esa 44 nafar. Mahallaga birlashtirilgan bank rahbariyati bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan biznes-rejaga muvofiq, joriy yil davomida "Oilaviy tadbirkorlik", "Biznesga birinchi qadam" singari dasturlar hayotga tatbiq etiladi.

Aniqroq aytganda, 8 nafar fuqaro IT sohasiga o'qitilib, ish bilan ta'minlandi. 13 oilaga subsidiya hisobiga tikuv mashinalari berilib, o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatga olinadi. Besh kishi imtiyozli kredit ajratish orqali tadbirkorlikka jalb qilinadi. Shuningdek, "Asakabank" AJ ko'magida mehnatga layoqatli 18 nafar fuqaroning bandligi ta'minlandi. Bu orqali har bir oilaning jon boshiga oylik daromadi 2 million so'mdan kam bo'lmasligiga erishiladi.

... Aytmoqchi, Dilbuloqdan qaytayotib, pir-u badavlat insonlardan biri Fazliddin Jamolov bilan ro'baro' kelib qoldik. Uzoq yillar davomida yosh avlodga ta'lim-tarbiya bergan, mahalla tizimida ishlagan 75 yoshli otaxon Umra ziyoratiga yo'l oylatganini aytib, "Zamonimiz tinch, Yurtboshimiz omon bo'lsin. Shunday obod mahallalarda umrguzaronlik qilish barchaga nasib etsin", deya duoga qo'l ochdi.

Muqaddas Ramazon o'yidagi duolar, albatta, ijobat bo'lajak!

Istam IBROHIMOV ("Xalq so'zi").  
Hasan PAYDOYEV olgan suratlar.

**"Hududimizda "Obod mahalla" dasturi sharofati bilan shunaqangi o'zgarishlar yuz berdiki, aytib ado qilolmaysan, kishi. Aytmoqchi, bir-ikki mahalladoshimiz bu yerdagi shart-sharoitlardan nolib boshqa joyga ko'chib ketgandi. Kuni kecha sobiq qo'shnilardan biri menga atayin qo'ng'iroq qilib, Dilbuloqdagi o'zgarishlardan xabar topgani, mahalladan ko'chib ketganiga pushaymonligini aytdi.**

sodir etilmadi. Mahalla hozir "yashil" toifada. Bunda zamonaviy aloqa vositalari ham katta rol o'ynamoqda.

Gap shundaki, mahallaning asosiy ko'chalari va ko'p qavatli turarjoylarda shahar hokimligi va tadbirkorlar yordami bilan qariyb 400 ta videokamera o'rnatildi. Ular profilaktika inspektori xonasiga integratsiya qilindi. Bu "aqlli" qurilmalar mahallaga kim, qanday mashina kirib kelganidan tortib, ko'p qavatli uylar oldidagi holatgacha — barcha-barchasini real vaqt rejimida yetkazib turibdi.

## "Ayollar daftari" men uchun o'tmishda qoldi"

— Pandemiya davrida ishsiz g'olib, qiynchiqlarga duch keldim, — deydi fuqaro Gulruh Abdujabborova. — Sharoitimizni o'rgangan mahalla mas'ullari meni "ayollar daftari"ga kiritdi. Lekin ko'nglimning bir chetida "o'z

o'ziga tinch, ro'zg'ori but oila bekasiga, dilbuloqlik ishsiz yoshlarning esa ustoziga aylandi.

Ma'lumotlarga ko'ra, asosiy drayveri xizmat ko'rsatish va tikuvchilik bo'lgan mahallada 293 ta tadbirkorlik subyekti mavjud.

## Fransiyada ham bozori chaqqon mahsulotlar

"Irodad" — mahalladagi eng yirik korxonada. U trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan. Shu yerda ayni damda 350 nafar ishchi mehnat qilmoqda. Vaholanki, bundan

Yevropaning mahalliy iqlimiga mos nimchalar va bosh kiyimlar tayyorlab Fransiyaga jo'natdik, — deydi u. — Hozir ham ko'plab buyurtmalar tushmoqda. Ko'rib turganingizdek tikuvchilarimizning qo'li qo'lga tegmaydi. Umuman, mahsulotimiz oltita davlatga eksport qilinmoqda. Yutuqlarimiz zamirida davlatimiz tomonidan yurimimizda qulay sarmoyaviy muhit yaratilgani, inson qadr-u qimmatli ulug'lanayotgani yotibdi, albatta.

Korxonada Xitoy texnologiyasi asosida jihozlangan. U xorijda ishlab chiqarilgan tikuv mashinalari dileri ham sanaladi. Toshkent shahri hamda viloyatlarda

# Maktab o'quvchisi minitraktor ishlab chiqarish uchun patent oldi

Namangan viloyatining Kosonsoy tumanidagi Jar mahallasida yashovchi Muhammad Sodiq Abdullaxilov bolalikdan texnika ishqi bozi.

54-maktabning 10-sinfida tahsil olayotgan yosh yigit bundan to'rt yil avval issiqxonada va tomorqalarda foydalanishga mo'ljallangan ixcham traktor ixtiro qilgandi. Oradan o'tgan vaqt ichida uni sinovdan o'tkazib, yanada takomillashtirdi.



## Ixtiro

Fermer xo'jaliklari, bog' va tokzorlar hamda tomorqa egalari uchun ma'qul tushib qolgan minitraktor anchagina tejamkor — 2 gektar yerga ishlov berish uchun bor-yo'g'i 5 litr yonilg'i sarflaydi. Kerakli uskunalarni o'rnatib, zarur agrotexnik tadbiri amalga oshirish, masalan, yerni shudgorlash, chopish, tekislash, ekin qator oralarini yumshatish mumkin.

Loyiha 94 million so'm miqdoridagi mablag' bilan moliyalashtirildi. Muhammad Sodiq shundan keyin otasi bilan birga 40 ta minitraktorni yig'ib, sotuvga chiqardi. Uning asosiy qismini mahalladoshlari xarid qilishdi.

E'tiborlisi, yosh ixtirochi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Yoshlar akademiyasi tomonidan o'tkazilgan "Bo'lajak olim" tanlovida o'zining "Qishloq xo'jaligi ekinlari uchun agrotexnik ishlov berish mashinasining sanoat namunasini ishlab chiqish" startap loyihasi bilan g'olib chiqib, akademiya a'zolariga qabul qilindi.

— Ayni paytda buyurtmalarni bajarish barobarida izlanishni davom ettiryapman, — deydi M. Abdullaxilov. — Yaqin vaqt

ichida obodonlashtirish ishlarida foydalaniladigan yangi texnika vositasining sinov namunasini oxiriga yetkazaman. U kuzgi xazonlarni yig'ishga mo'ljallangan bo'lib, soha ishchilari mehnatini yangilash imkonini beradi.

Innovator o'quvchi ustaxonadagi ishlarga andamon bo'lib, bilim olishni tashlab qo'ygan yo'q. Barcha fanlarni, ayniqsa, fizika va matematikani astoydil o'zlashtiryapti. Niyati — maktabni tamomlagach, mashinasozlik yo'nalishida tahsil olish. Bu kelgusida odamlar og'irini yengil qiladigan zamonaviy texnika vositalari, xususan, "aqlli" robotlarni yaratishiga eshik ochadi.

Qudratilla NAJIDDINOV ("Xalq so'zi").



## Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142.15 736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qo'g'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:  
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihozdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir I. Brohimov.  
Musahhah S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzil:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.49 Topshirildi — 00.00 1 2 3 4 5 6

Xalq so'zi  
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Senati Kengashi